



**SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING
IQTISODIY JARAYONLARGA TA'SIRI**

**THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE
TECHNOLOGIES ON ECONOMIC PROCESSES**

**ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО
ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКИЕ
ПРОЦЕССЫ**

FAN TARMOG'I
08.00.00 – Iqtisodiyot

QABUL QILINDI
03.09.2026

CHOP ETILDI
06.09.2026

Fazilat Artikova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti Iqtisodiyot va menejment kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy iqtisodiy jarayonlardagi o'рни, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi, tadbirkorlik faoliyati, mehnat bozori va iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning iqtisodiy tizimga joriy etilishi natijasida ma'lumotlarni qayta ishlash, prognozlash, qaror qabul qilish, resurslarni taqsimlash va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari kengayib borayotgani asoslanadi. Shuningdek, sun'iy intellektidan foydalanishning mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar, kasblar transformatsiyasi va malaka talablarining yangilanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari asosida sun'iy intellektning mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishga potensial ta'siri yoritiladi. O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellektidan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinib, texnologik infratuzilma, inson kapitali, ma'lumotlar bazasi va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi, innovatsiya, mehnat bozori, avtomatlashtirish, inson kapitali, raqamli transformatsiya, texnologik rivojlanish.

ABSTRACT

This article examines the role of artificial intelligence technologies in contemporary economic processes, with particular attention to productivity, labour markets, entrepreneurship, business efficiency and economic growth. The study analyzes how artificial intelligence contributes to data processing, forecasting, decision-making, resource allocation and automation of business processes. Particular attention is paid to the transformation of employment structures and the changing demand for professional skills. Based on studies conducted by international

organizations, the potential contribution of artificial intelligence to labour productivity and economic growth is discussed. The article also analyzes the priorities of Uzbekistan's Strategy for the Development of Artificial Intelligence Technologies until 2030 and identifies opportunities for expanding AI applications in economic sectors. The study emphasizes the importance of technological infrastructure, human capital, data resources and innovative entrepreneurship for ensuring the effective and inclusive adoption of artificial intelligence.

Keywords: artificial intelligence, digital economy, economic growth, labour productivity, innovation, labour market, automation, human capital, digital transformation, technological development.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль технологий искусственного интеллекта в современных экономических процессах, в частности их влияние на производительность труда, рынок труда, предпринимательскую деятельность, эффективность бизнеса и экономический рост. Анализируются возможности использования искусственного интеллекта для обработки данных, прогнозирования, принятия управленческих решений, распределения ресурсов и автоматизации бизнес-процессов. Особое внимание уделяется структурным изменениям на рынке труда и трансформации требований к профессиональным компетенциям работников. На основе исследований международных организаций раскрывается потенциальное влияние искусственного интеллекта на производительность труда и экономический рост. Также анализируются приоритетные направления Стратегии развития технологий искусственного интеллекта в Республике Узбекистан до 2030 года и перспективы расширения применения искусственного интеллекта в различных секторах экономики. Обосновывается необходимость развития технологической инфраструктуры, человеческого капитала, информационных ресурсов и инновационного предпринимательства.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая экономика, экономический рост, производительность труда, инновации, рынок труда, автоматизация, человеческий капитал, цифровая трансформация, технологическое развитие.

KIRISH

XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining muhim xususiyatlaridan biri ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining raqamlashtirilishi, ma'lumotlarning iqtisodiy resurs sifatidagi ahamiyati ortishi hamda intellektual texnologiyalarning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga jadal kirib borishi bilan belgilanmoqda. Mazkur jarayonda sun'iy

intellekt texnologiyalari alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki sun'iy intellekt nafaqat ayrim operatsiyalarni avtomatlashtirish, balki katta hajmdagi ma'lumotlar asosida prognozlar ishlab chiqish, murakkab iqtisodiy vaziyatlarni modellashtirish, iste'molchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkonini beradi.

OECD tadqiqotlarida sun'iy intellekt umumiy maqsadli texnologiya sifatida qaralib, uning iqtisodiy samaradorlik va innovatsion rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatish salohiyati qayd etilgan. Biroq uning makroiqtisodiy samarasi texnologiyaning qanchalik keng tarqalishi, korxonalar o'rtasidagi texnologik tafovut, inson mehnatini to'ldirish yoki almashtirish darajasi kabi omillarga bog'liq.

Sun'iy intellektning iqtisodiy ahamiyati, avvalo, mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati bilan izohlanadi. OECDning 2024-yildagi tadqiqotida sun'iy intellektning keyingi o'n yillikdagi makroiqtisodiy ta'siri baholanib, turli ssenariylarga ko'ra uning yillik jami omillar unumdorligi o'sishiga 0,25–0,6 foiz punkt, mehnat unumdorligiga esa 0,4–0,9 foiz punkt qo'shishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bu raqamlar sun'iy intellektning iqtisodiy o'sishning mustaqil manbai sifatida emas, balki kapital, malaka, innovatsiya va institutsional muhit bilan o'zaro bog'liq holda qaralishi lozimligini ko'rsatadi.

Biroq sun'iy intellektning iqtisodiy ta'siri faqat ijobiy samaralar bilan chegaralanmaydi. Texnologiyaning keng joriy qilinishi ayrim kasblar va ish vazifalarining mazmunini o'zgartirishi, ayrim faoliyat turlariga bo'lgan talabni kamaytirishi va yangi kasbiy kompetensiyalarga ehtiyojni oshirishi mumkin. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosidagi bandlikning qariyb 40 foizi sun'iy intellekt ta'siriga ma'lum darajada duch kelishi mumkin. Shu bilan birga, sun'iy intellekt ayrim hollarda inson mehnatini almashtirishdan ko'ra, uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur holat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki texnologik taraqqiyotdan samarali foydalanish bir tomondan ishlab chiqarish va xizmatlar samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan raqamli infratuzilma, malakali mutaxassislar va zamonaviy ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishni talab qiladi. Jahon bankining 2025-yilgi hisobotida ham sun'iy intellekt rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi bozorlar va ish o'rinlarini yaratish, bilimlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ishlab chiqarish unumdorligini oshirish uchun katta salohiyatga ega ekani, biroq bunday mamlakatlarda zarur infratuzilma va texnologik tayyorgarlik darajasini oshirish muhimligi ta'kidlangan.

O'zbekiston uchun ham ushbu masala strategik ahamiyatga ega. Mamlakatda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslarini shakllantirish maqsadida 2024-yil 14-oktabrda sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan. Strategiyada

sun'iy intellekt asosidagi dasturiy mahsulot va xizmatlar hajmini oshirish, texnik infratuzilmani rivojlantirish, inson kapitalini mustahkamlash hamda iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda sun'iy intellektdan keng foydalanish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'sirini faqat texnologik jarayon sifatida emas, balki ishlab chiqarish munosabatlari, mehnat bozori, tadbirkorlik muhiti, investitsiya siyosati va inson kapitalining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq kompleks iqtisodiy hodisa sifatida o'rganish zarur.

ASOSIY QISM

Sun'iy intellektning iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini tushuntirishda, avvalo, uning ishlab chiqarish omillari bilan o'zaro munosabatiga e'tibor qaratish lozim. An'anaviy iqtisodiy modelda mehnat va kapital asosiy ishlab chiqarish omillari sifatida qaralsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumotlar, algoritmlar, hisoblash quvvati va raqamli infratuzilma ham iqtisodiy qiymat yaratishning muhim tarkibiy qismlariga aylanmoqda. Sun'iy intellekt aynan ushbu resurslarni birlashtirish orqali iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Korxona darajasida sun'iy intellektdan foydalanishning eng muhim iqtisodiy samaralaridan biri operatsion xarajatlarni optimallashtirishdir. Masalan, talabni prognozlash, zaxiralarni boshqarish, logistika yo'nalishlarini optimallashtirish, mijozlar bilan munosabatlarni avtomatlashtirish va moliyaviy xavflarni aniqlash kabi jarayonlarda algoritmik yechimlardan foydalanish inson tomonidan bajariladigan takroriy operatsiyalar hajmini qisqartiradi. Natijada vaqt va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi.

Sun'iy intellektning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri ayniqsa prognozlash imkoniyatlarida yaqqol ko'rinadi. An'anaviy boshqaruvda iqtisodiy qarorlar ko'pincha cheklangan ma'lumotlar va retrospektiv ko'rsatkichlarga tayanadi. Sun'iy intellekt esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlab, turli ssenariylarni modellashtirish imkonini beradi. Bu korxonalarga bozor talabining o'zgarishi, narxlar dinamikasi, iste'molchi xatti-harakati va ta'minot zanjiridagi ehtimoliy uzilishlarni oldindan baholash imkonini yaratadi.

OECDning baholashlariga ko'ra, sun'iy intellektning makroiqtisodiy samarasi uning mikro darajadagi unumdorlik ta'siridan tashqari, texnologiyaning iqtisodiyot bo'ylab qanchalik keng tarqalishiga ham bog'liq. Demak, alohida yirik korxonaning sun'iy intellektdan yuqori samaradorlik bilan foydalanishi milliy iqtisodiyotda sezilarli o'zgarish yuzaga kelishi uchun yetarli emas. Texnologiyaning kichik va o'rta biznesga ham kirib borishi, infratuzilmaning ommalashishi va tegishli kadrlar tayyorlanishi talab etiladi.

Sun'iy intellektning yana bir muhim iqtisodiy ta'sir yo'nalishi innovatsion faoliyat bilan bog'liq. Innovatsiya jarayonida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, yangi mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabni aniqlash, ilmiy-texnik axborotni qayta ishlash hamda tajriba natijalarini modellashirish muhim o'rin tutadi. Sun'iy intellekt ushbu jarayonlarning tezligini oshirish orqali innovatsion siklni qisqartirishi mumkin.

Bunda sun'iy intellektni oddiy avtomatlashtirish vositasi sifatida baholash yetarli emas. U iqtisodiy faoliyatning o'zini tashkil etish usullarini ham o'zgartirmoqda. Masalan, korxonalar ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga o'tishi, real vaqt rejimida ko'rsatkichlarni kuzatishi va qarorlarni algoritmik tahlil bilan qo'llab-quvvatlashi mumkin. Natijada boshqaruvning tezkorligi va moslashuvchanligi oshadi.

Mehnat bozori sun'iy intellektning eng ko'p muhokama qilinayotgan ta'sir yo'nalishlaridan biridir. Texnologiyaning rivojlanishi ayrim mehnat vazifalarini avtomatlashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar yangi kasblar va yangi kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Shuning uchun sun'iy intellektning bandlikka ta'sirini faqat "ish o'rinlarining qisqarishi" nuqtayi nazaridan baholash ilmiy jihatdan biryoqlama yondashuv hisoblanadi.

IMF tadqiqotlarida ham sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri ikki tomonlama xarakterga ega ekani ko'rsatiladi: ayrim vazifalar avtomatlashtirilishi mumkin, boshqa vazifalarda esa sun'iy intellekt inson mehnatining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa bilimga asoslangan kasblarda sun'iy intellektning ta'siri avvalgi avtomatlashtirish to'lqinlaridan farq qilishi mumkin.

Shu sababli iqtisodiy siyosatning asosiy vazifalaridan biri texnologik transformatsiya sharoitida inson kapitalini moslashtirishdan iborat. Xodimlarning raqamli savodxonligi, ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmasi, algoritmik fikrlash, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish va yangi texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish mehnat bozorining barqarorligi uchun muhim shartga aylanadi. OECD ham sun'iy intellektning samarali joriy etilishi ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarini takomillashtirish bilan birga olib borilishi zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan qaranganda, sun'iy intellektning qo'llanish sohasi juda keng. Mamlakatning 2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasida bank va moliya, soliq va bojxona, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, energetika kabi sohalarda sun'iy intellekt foydalanishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Xususan, moliya sektorida firibgarlikni aniqlash, kreditga layoqatlilikni baholash va bozor tendensiyalarini prognozlash kabi vazifalarda AI texnologiyalaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

Qishloq xo‘jaligida esa sun‘iy intellekt hosildorlikni prognozlash, resurslardan foydalanishni optimallashtirish, ekinlarning holatini monitoring qilish va suv resurslarini samarali boshqarish uchun qo‘llanishi mumkin. Bu ayniqsa suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi dolzarb bo‘lgan hududlar uchun muhimdir.

Energetika sohasida sun‘iy intellekt energiyaga bo‘lgan talabni prognozlash, ishlab chiqarish va taqsimotni optimallashtirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu esa energiya xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarish barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekistonning sun‘iy intellekt bo‘yicha strategik yondashuvi iqtisodiy qiymat yaratish bilan bir qatorda texnologik mustaqillikni kuchaytirishga ham yo‘naltirilgan. Strategiyada 2030-yilgacha sun‘iy intellekt asosidagi dasturiy mahsulot va xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish, davlat xizmatlarida AI asosidagi xizmatlar ulushini kengaytirish hamda mamlakatning Government AI Readiness Index reytingida yuqori o‘rinlarga chiqishini ta‘minlash kabi maqsadlar belgilangan.

2026-yil avgustidagi hukumat ma‘lumotlarida O‘zbekistonning Global AI Readiness Index reytingida 62-o‘ringa ko‘tarilgani, 2030-yilgacha dunyoning eng yuqori 50 mamlakati qatoriga kirish maqsadi qo‘yilgani qayd etilgan. Shuningdek, AI asosidagi dasturiy mahsulot va xizmatlar qiymatini 1,5 milliard dollarga yetkazish hamda yangi AI loyihalarini ko‘paytirish vazifalari belgilangan.

Bunday ko‘rsatkichlar sun‘iy intellektning mamlakat iqtisodiyotida yangi o‘sish nuqtalarini shakllantirish imkoniyatini ko‘rsatadi. Biroq iqtisodiy samaraga erishish uchun texnologiyani shunchaki xarid qilish yoki joriy etishning o‘zi yetarli emas. Avvalo, sifatli ma‘lumotlar bazasini yaratish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va biznes uchun qulay innovatsion muhit yaratish zarur.

Jahon banki ham rivojlanayotgan mamlakatlarda sun‘iy intellektidan foydalanishning samaradorligi “AI foundations”, ya‘ni raqamli infratuzilma, hisoblash quvvati, ma‘lumotlar, malaka va tegishli institutsional muhitning mavjudligiga bog‘liqligini ta‘kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda sun‘iy intellekt iqtisodiyotining rivojlanishi uchun texnologik infratuzilma bilan bir qatorda universitetlar, ilmiy markazlar, IT kompaniyalari va davlat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhimdir.

Sun‘iy intellektidan foydalanishning yana bir muhim jihati kichik va o‘rta biznesning raqobatbardoshligini oshirishdir. Ilgari yuqori darajadagi tahliliy vositalar asosan yirik kompaniyalar uchun mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda bulutli texnologiyalar va AI xizmatlari kichik korxonalarga ham ma‘lumotlar tahlili, marketing, mijozlar bilan aloqa, tarjima, kontent yaratish va biznes jarayonlarini

avtomatlashtirish imkoniyatlarini bermoqda. Bu esa texnologiyaga kirish imkoniyatlari kengayishi orqali tadbirkorlik muhitini demokratlashtirishi mumkin.

Biroq sun'iy intellektning keng tarqalishi iqtisodiy tengsizlik xavfini ham yuzaga keltiradi. Texnologiyani tez o'zlashtirgan korxonalar bilan undan foydalana olmayotgan korxonalar o'rtasidagi unumdorlik tafovuti kengayishi mumkin. Xuddi shuningdek, yuqori malakali va raqamli kompetensiyalarga ega xodimlar texnologik o'zgarishlardan ko'proq foyda ko'rishi, boshqa guruhlar esa moslashish qiyinchiliklariga duch kelishi mumkin. OECD tadqiqotlari ham sun'iy intellektidan olinadigan iqtisodiy samarani teng taqsimlash uchun malaka, texnologiyaga kirish va institutsional siyosat masalalariga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Shuning uchun O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt siyosatining iqtisodiy modeli uchta o'zaro bog'liq yo'nalishga tayanishi maqsadga muvofiq: texnologik infratuzilma – inson kapitali – innovatsion biznes muhiti. Birinchi yo'nalish yuqori tezlikdagi internet, ma'lumotlar markazlari, hisoblash quvvatlari va raqamli platformalarni rivojlantirishni; ikkinchi yo'nalish AI bo'yicha mutaxassislar, tadqiqotchilar va barcha soha xodimlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishni; uchinchi yo'nalish esa startaplar, xususiy investitsiyalar va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

XULOSA

Sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy iqtisodiyotning texnologik bazasini o'zgartirayotgan muhim omillardan biriga aylanmoqda. Uning iqtisodiy ahamiyati ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish bilangina cheklanmay, mehnat unumdorligini oshirish, innovatsiyalarni tezlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, yangi biznes modellarini shakllantirish va iqtisodiy qarorlarning sifatini yaxshilash imkoniyatlarida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektning iqtisodiy samarasi texnologiyaning o'zidan ko'ra, undan foydalanish uchun yaratilgan muhitga ko'proq bog'liq. Raqamli infratuzilma, sifatli ma'lumotlar, malakali inson kapitali, ilmiy salohiyat, investitsiyalar va samarali institutsional mexanizmlar mavjud bo'lmagan sharoitda AI texnologiyalarining iqtisodiy samarasi cheklangan bo'lib qoladi.

O'zbekiston uchun sun'iy intellekt iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot va xizmatlar yaratish hamda xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirishning istiqbolli vositalaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasining qabul qilingani mamlakatda ushbu yo'nalishning institutsional asoslari shakllanayotganini ko'rsatadi.

Kelgusida AI texnologiyalarini iqtisodiyotga joriy etishda, birinchi navbatda, kichik va o'rta biznesning texnologiyaga kirish imkoniyatlarini kengaytirish,

universitetlarda AI va ma'lumotlar tahlili bo'yicha kadrlar tayyorlashni kuchaytirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, milliy ma'lumotlar resurslarini shakllantirish hamda AI asosidagi mahalliy startaplarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarur.

Shuningdek, mehnat bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tarkibiy o'zgarishlarni oldindan hisobga olib, xodimlarni qayta tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini kuchaytirish muhimdir. Chunki sun'iy intellekt sharoitida iqtisodiy raqobat nafaqat texnologiyalar, balki inson kapitalining texnologiyadan samarali foydalanish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Umuman olganda, sun'iy intellektni iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylantirish uchun "texnologiyani joriy etish" yondashuvidan "texnologiya orqali iqtisodiy qiymat yaratish" yondashuviga o'tish talab etiladi. Aynan shu yondashuv O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotdan bilim va innovatsiyalarga asoslangan yuqori samarali iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Filippucci F., Gal P., Jona-Lasinio C., Leandro A., Nicoletti G. The impact of Artificial Intelligence on productivity, distribution and growth: Key mechanisms, initial evidence and policy challenges. OECD Artificial Intelligence Papers, No. 15. Paris: OECD Publishing, 2024.
2. Filippucci F., Gal P., Schief M. Miracle or Myth? Assessing the macroeconomic productivity gains from Artificial Intelligence. OECD Artificial Intelligence Papers, No. 29. Paris: OECD Publishing, 2024.
3. Cazzaniga M., Jaumotte F., Li L., Melina G., Panton A.J., Pizzinelli C., Rockall E., Tavares M.M. Gen-AI: Artificial Intelligence and the Future of Work. IMF Staff Discussion Note, SDN/2024/001. Washington, DC: International Monetary Fund, 2024.
4. Georgieva K. AI Will Transform the Global Economy. Let's Make Sure It Benefits Humanity. International Monetary Fund, 2024.
5. Lane M. Who will be the workers most affected by AI? A closer look at the impact of AI on women, low-skilled workers and other groups. OECD Artificial Intelligence Papers, No. 26. Paris: OECD Publishing, 2024.
6. OECD. Job Creation and Local Economic Development 2024: The Geography of Generative AI. Paris: OECD Publishing, 2024.
7. World Bank. Digital Progress and Trends Report 2025: AI Foundations. Washington, DC: World Bank, 2025.
8. OECD. AI meets trade. Paris: OECD Publishing, 2026.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2024-yil 14-oktabr, PQ-358-son.



10. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Artificial Intelligence. O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha rasmiy ma'lumotlar.
11. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal. Priority tasks defined for the development of the artificial intelligence ecosystem. 2026-yil 7-avgust.
12. World Bank. Digital Economy. Washington, DC: World Bank, 2025.

